



BOSHLANG'ICH SINFLAR AQLI ZAIF O'QUVCHILARINING IJTIMOYIY - MAISHIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Anvarova Dिल्фуза Akramjanovna,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Oligofrenopedagogika kafedarsi o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1625>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 64

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

aqli zaif o'quvchilar, ijtimoiy-maishiy kompetensiya, psixologik xususiyatlar, korreksion pedagogika, ijtimoiy moslashuv, nutq rivojlanishi, boshlang'ich ta'lim, maxsus pedagogika

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarining ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu toifadagi bolalarning kognitiv, nutqiy, emotsional va irodaviy rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, ularning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar ilmiy asosda yoritilgan. Aqli zaif o'quvchilarda idrok, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarining o'ziga xos rivojlanishi maishiy ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklar tug'dirishi, nutqning cheklanganligi esa muloqot va ijtimoiy faollikni kamaytirishi aniqlangan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy-maishiy kompetensiyani shakllantirishda korreksion-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati, amaliy faoliyatga asoslangan o'qitish usullari, takroriy mashqlar hamda individual yondashuvning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari aqli zaif o'quvchilarning mustaqil hayotga moslashuvi uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayoni muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida oilaviy muhit, maktab va maxsus pedagogik yordamning o'zaro integratsiyasi muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Bola rivojlanishida ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyatning uzluksizligi uning kundalik hayotiy ko'nikmalarni mustahkamlashiga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalarda mustaqillik darajasini oshirish uchun o'qituvchi tomonidan beriladigan aniq yo'riqnomalar, vizual qo'llab-quvvatlash vositalari va bosqichma-bosqich o'rgatish tizimi samarali natija beradi. Shu bilan birga, motivatsion sohani rivojlantirish va ijobiy emotsional muhit yaratish ham o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Ijtimoiy-maishiy kompetensiyani shakllantirish nafaqat ta'limiy, balki korreksion-rivojlantiruvchi jarayon bo'lib, u bolalarning jamiyatga moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim rol o'ynaydi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 64

KEYWORDS

mentally retarded students, socio-domestic competence, psychological characteristics, correctional pedagogy, social adaptation, speech development, primary education, special pedagogy

ANNOTATION

This article analyzes the psychological aspects of the formation of socio-domestic competence of primary school students with mental retardation. The study scientifically highlights the features of cognitive, speech, emotional and volitional development of this category of children, as well as factors affecting their social adaptation process. It was found that the specific development of perception, attention, memory and thinking processes in students with mental retardation creates difficulties in mastering household skills, and limited speech reduces communication and social activity. The article also substantiates the importance of correctional and pedagogical approaches in the formation of socio-domestic competence, the effectiveness of teaching methods based on practical activities, repeated exercises and an individual approach. The results of the study indicate the importance of a specially organized educational process for the adaptation of students with mental retardation to independent life. This study also emphasizes that the integration of the family environment, school, and special pedagogical support is an important factor in the process of forming the socio-domestic competence of mentally retarded students. The continuity of social experience and practical activities in the development of a child serves to strengthen his daily life skills. The analysis shows that clear instructions, visual support tools, and a step-by-step teaching system provided by the teacher to increase the level of independence in mentally retarded children give effective results. At the same time, the development of the motivational sphere and the creation of a positive emotional environment also ensure the active participation of students. The formation of socio-domestic competence is not only an educational, but also a correctional and developmental process, which plays an important role in the adaptation of children to society and their preparation for independent life.

Kirish. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarining ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish bugungi maxsus pedagogika va oligofrenopedagogika sohasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki kichik maktab yoshi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishida hamda kundalik hayotiy ko'nikmalarni egallashida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Aqli zaif bolalarda esa psixik rivojlanishdagi cheklanishlar sababli ijtimoiy moslashuv jarayoni o'ziga xos qiyinchiliklar bilan kechadi. Ularning idrok, tafakkur, nutq, diqqat va xotira jarayonlaridagi sustlik, shuningdek, motivatsion va irodaviy sohalardagi yetishmovchiliklar ijtimoiy-maishiy ko'nikmalarni egallash jarayonini sekinlashtiradi. Shu bois, ushbu toifadagi o'quvchilarning kundalik hayotda mustaqil faoliyat yuritishi uchun maxsus pedagogik va psixologik yondashuvlar zarur bo'ladi.

Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, ijtimoiy-maishiy kompetensiya nafaqat amaliy ko'nikmalar majmuasi, balki shaxsning jamiyatga moslashuvi, muloqotga kirishishi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishi va mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Aqli zaif o'quvchilarda ushbu jarayonning shakllanishi maxsus tashkil etilgan

korreksion ta'lim, ijtimoiy muhitga moslashtirilgan pedagogik sharoitlar va individual yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, kichik maktab yoshi bolaning hayotiy resurslari shakllanishida juda muhim davr, uning ijtimoiylashuvi tiklanishi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish, dunyoni idrok qilishning boyishi, shaxsiy sifatlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadigan bosqich.

O.K.Agavelyan, I.B.Agayeva, I.M.Bgajnokova, A.N.Gamayunova, V.V.Gladkaya, N.P.Pavlova kabi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, me'yoriy kichik yoshdagi maktab o'quvchilari ko'plab maishiy ko'nikma va malakalarni katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida, imitatsiyali o'yinlar davomida, ijtimoiy-maishiy majburiyatlarni bajarish, radio va televidenie orqali beriladigan axborot dasturlari va sh.k. davomida o'zlashtiradi, aqli zaif bolalarning ijtimoiy-maishiy moslashishi esa nuqson – total ruhiy rivojlanishning yetishmasligi yoki demensiya sababli yuzaga kelgan buzilishlar hisobiga ancha qiyin kechadi.

Aqli zaif bola hayotining dastlabki kunlaridan ta'limda katta qiyinchiliklarga duch keladi. T.A.Vlasova, L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy, M.S.Pevzner, S.Ya.Rubinshteyn va J.I.Shif kabi olimlarning aniqlashicha,

bu toifaga mansub bolalarning butun predmetli-maishiy faoliyati differentsiatsiyalanmaganlik spontanlik bilan tavsiflanadi.

Bir qator tadqiqotchilar insonning ijtimoiy-maishiy moslashuvi uchun uning boshqa insonlar bilan muloqoti, suhbatga kirisha olishi muhimligi, ya'ni dialogli nutqning ma'lum darajada shakllanganligi zarur ekanini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarining ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi maxsus pedagogika, psixologiya va oligofrenopedagogika fanlarida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy moslashuv jarayoni hamda kundalik hayotiy ko'nikmalarni egallash mexanizmlarini yoritishga qaratilgan.

L.S. Vygotskiy o'zining ilmiy qarashlarida bola rivojlanishining ijtimoiy tabiati, ya'ni har qanday psixik funktsiyaning avval ijtimoiy, keyin esa individual shaklda namoyon bo'lishini asoslab bergan [2, 78-bet]. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi aqli zaif bolalarni o'qitishda pedagogik yordamning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Vygotskiyga ko'ra, maxsus tashkil etilgan ta'lim sharoitida bola o'z imkoniyatlaridan yuqoriroq darajadagi faoliyatni ham o'zlashtira oladi [2, 112-bet].

S.Ya. Rubinshteyn va J.I. Shif tadqiqotlarida aqli zaif bolalarning nutq va tafakkur rivojlanishidagi o'ziga xosliklar chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, bu toifadagi bolalarda nutqning kommunikativ va regulativ funktsiyalari yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, bu ijtimoiy-maishiy ko'nikmalarni egallash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7, 201-bet]. Shuningdek, mualliflar aqli zaif bolalarda ixtiyoriy diqqatning beqarorligi va xotira jarayonlarining sust rivojlanganligini ta'kidlaydi.

V.I. Lubovskiy va M.S. Pevznerning ishlari aqli zaif bolalarning kognitiv faoliyatidagi cheklanishlarni ochib berishga qaratilgan bo'lib, ularda tafakkurning konkretligi, umumlashtirish va mavhumlashtirish jarayonlarining qiyin kechishi qayd etilgan [5, 56-bet]. Bu holat bolalarning maishiy vazifalarni mustaqil bajarishida ham sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

I.B. Agayeva va O.K. Agaveyan tadqiqotlarida esa me'yoriy rivojlanayotgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni asosan o'yin, muloqot va kundalik faoliyat orqali o'zlashtirishi, aqli zaif bolalarda esa bu jarayon ancha sekin va maxsus pedagogik yordam asosida kechishi ta'kidlanadi [1, 134-bet]. Mualliflar ijtimoiy-maishiy moslashuv jarayonida takroriy mashqlar va vizual qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi.

T.N. Golovina va V.G. Petrova ishlari aqli zaif bolalarning motivatsion sohasi past darajada rivojlanganligi, ularning faoliyatga kirishishida tashqi rag'batlantirishga kuchli bog'liqlik mavjudligi qayd etiladi [6, 88-bet]. Bu esa ijtimoiy-maishiy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik motivatsiyaning ahamiyatini yanada oshiradi.

L.M. Shipitsina esa aqli zaif bolalarning ijtimoiylashuvi oilaviy va maktab muhitining uzviy hamkorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola shaxsining rivojlanishida ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyat asosiy o'rin tutadi, shuning uchun maxsus ta'lim jarayonida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim [7, 245-bet].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda (T.N. Starichenko, V.F. Machixina) aqli zaif bolalarni ijtimoiy-maishiy faoliyatga o'rgatishda individual ta'lim dasturlari va korreksion yondashuvlarning samaradorligi yuqori ekanligi ko'rsatilgan [4, 67-bet]. Bu yondashuvlar bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni bosqichma-bosqich mustaqillikka olib chiqishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, u psixologik rivojlanish xususiyatlari, pedagogik sharoitlar hamda individual yondashuv bilan chambarchas bog'liqdir.

Metodologiya. Tadqiqotda boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarining ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Metodologik asos sifatida L.S. Vygotskiy, S.Ya. Rubinshteyn va A.N. Leontevning rivojlanish va faoliyatga oid nazariyalari olindi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, pedagogik eksperiment va diagnostik metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy ko'nikmalari va ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari o'rganildi. Metodologiyaning asosiy tamoyillari sifatida individual yondashuv, insonparvarlik, faoliyatga yo'naltirilganlik va korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari belgilandi. Bu yondashuvlar aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qildi.

Natijalar. Aqli zaif bolalar esa amalda nutq tashabbuskori sifatida o'zini namoyon qilmaydi. Muloqotga ehtiyojning kamligi, passivlik, atrofda qilargana qiziqishning zaifligi – bularning hammasi lug'atning boyish

jarayonini sekinlashtiradi, bolalarning o'zaro va atrofda qilargana bilan faol muloqotiga to'sqinlik qiladi. O'z-o'zidan yangi so'zlarni to'plash ularning faol lug'ati yaxshilanishiga olib kelmaydi, chunki ular xatto kerakli so'zni bilsa-da, nutqdan hamma vaqt ham foydalanavermaydi. Katta yoshli odamning, bir-biri bilan ketma-ket keladigan bir necha jumladan iborat bo'lgan, og'zaki yo'riqlari kichik yoshdagi aqli zaif o'quvchilar tomonidan deyarli idrok qilinmaydi. Ular faqat o'qituvchi bilan yoki muayyan buyurtma asosida harakatlana oladi. T.A.Vlasova, S.Ya.Rubinshteyn, L.M.Shipitsina, J.I.Shif va boshq. takidlashucha, kattaroq yoshda bolalarda nutqning regulativ (boshqaruv) funktsiyasi rivojlanadi, ammo ta'lim o'qituvchining ko'rsatmalari bilan kechadigan predmetli-amaliy faoliyat asosiga qurilganicha qolaveradi.

V.V.Voronkova, A.N.Gamayunova, V.F.Machixina, N.P.Pavlova, T.N.Starichenko va boshqalarning ta'kidlashicha, bu toifa bolalarda ijtimoiy faoliyat haqidagi bilim va tasavvurlar cheklanganligi qayd etiladi. Bolalar ijtimoiy tuzumga oid masalalarni farqlashni kech boshlaydi, ularning ko'pchiligini ishonitirish juda oson hamda ayni vaqtda ular hamma yangilik va o'zlariga nisbatan ta'sirga qat'iy qarshilik ko'rsatadi.

Ixtiyoriy diqqat maqsadga yo'naltirilgan emas, uni jalb qilish uchun katta sa'y-harakat talab etiladi, u barqaror emas, oson toliqadi, chalg'ish darajasi yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bu aqli zaif bola uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va xatta nafaqat maktab dasturi, balqi o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish elementlarini o'zlashtirishda ham to'sqinlik qiladi.

Tafakkur konkret, maishiy ko'nikmalar, o'z ehtiyojlarini amalga oshirish notanqidiy, izchil emas va stereotip (bir qolipdagi). bilan cheklangan. Tafakkurning xulq-atvorni boshqaruv funktsiyasi kuchsiz, mavhum jarayonlarga qobiliyatning pastligi ta'kidlanadi. Aqli zaif bola o'z faolligini bosqichlar bo'yicha rejalashtira olmaydi va oqibatlarini oldindan ko'ra bilmaydi.

Bundan tashqari, atrof-muhitda adekvat yo'nalganlik olish (orientirovka) ko'rish, eshitish, kinestetik, taktil, hid bilish va ta'm sezgi va idrokning torayishi va sekinlashishi hisobiga qiyinlashadi. Idrokning o'ziga xos rivojlanishi odamning atrofida nimalar borligi va uning o'zi nima ekanini haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi.

Intellektual nuqsonning mavjudligi ijtimoiy-me'yoriy xulqni ta'minlash vazifasini hal etishni murakkablashtiradi, ijtimoiy kamchiliklar ehtimolini oshiradi, shaxsiy yo'nalganlikning o'ziga xosligiga ta'sir o'tkazadi, ehtiyojlar primitivligi (o'ta soddaligi), mustaqillikning past darajasini aniqlaydi.

T.N.Golovina, V.G.Petrova, S.Ya.Rubinshteyn, J.I.Shif (kabi olimlarning) va boshqalarning ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar uchun motivatsiya sohasining past darajada rivojlanishi, iroda sohasi rivojlanishining o'ziga xosligi xarakterlidir. Bu toifadagi bola shaxsining tipik jihatlari tashabbus va mustaqillikning yo'qligi, bundan bola uchun tashqi taassurotlarga bevosita impulsiv reaksiyalar, o'ylanmagan xatti-harakatlar xos.

S.Ya.Rubinshteyn, J.I.Shif va boshqalar ta'kidlashicha, aqli zaif bolalarning ixtiyoriy faolligi tashabbusning yetishmasligi, ehtiyojlarining jilovlanmaganligi, ta'sirga beriluvchanlik va qaysarlik, undovlar, ijtimoiy va shaxsiy motivlarning kuchsizligi bilan ajralib turadi.

Xatti-harakatlar ko'pincha maqsadli emas, motivlar kurashi mavjud emas. Xatti-harakatlar ko'pincha impulsiv, maqsadsiz xarakterga ega ekanini sababli xulq-atvor o'ta noizchil, kutilmagan. U passivlik bilan ajralib turadi, ba'zan kutilmagan va, odatda, noo'rin, xatti-harakatlar bilan uzilib qoladi, bu, shubhasiz, aqli zaif insonning hayotga moslashishini qiyinlashtiradi.

Biroq baribir shaxsning ma'lum yetuklik darajasida ularning ko'pchiligi o'zini parvarishlash (o'ziga qarash) sohasida mustaqillikka erisha oladi. Ular mustaqil ovqatlana, yuqina, kiyina oladi va sh.k. ular amaliy va maishiy ko'nikmalarni o'zlashtiradi, garchi ularning rivojlanishi normadagidan ancha sekin bo'lsa ham [229].

Shaxsning rivojlanishi o'zaro bir-birini to'ldiradigan ikkita chiziq: ijtimoiylashuv (ijtimoiy tajribani o'zlashtirish) va individualizatsiya (qaror qabul qilish va faoliyatni tashkil etishda mustaqillikka ega bo'lish) bo'yicha kechadi. Bola rivojlanishida ayni shu ikkita chiziqni uyg'unlashtirish shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv amalga oshiriladigan ta'limning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Bola shaxsiga yaxlit yondashuvdan tashqari rivojlanishda mavjud nuqsonlardan qat'iy nazar korreksion-ta'limiy ishlarning vazifasi bolani L.S.Vigotskiyning ta'bir bilan aytganda, ijtimoiy to'laonlilik darajasiga olib chiqish yoki unga yaqinlashtirish, buni shu toifadagi bolaning o'zini o'zi realizatsiyalashining maksimal yuqori darajasi bilan birlashtirish uchun zarur pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratishga umumiy ustanovkani anglab yetish va qabul qilish ham muhim. Maxsus korreksion ta'lim bu toifadagi o'quvchilarning qiyinchiliklari o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda hayot tarzini tashkil etadigan barcha asosiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Muhokama. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarining ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi maxsus ta'lim tizimida eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, u nafaqat pedagogik, balki chuqur psixologik asoslarni ham talab etadi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu toifadagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni bir qator kognitiv, emotsional va xulq-atvoriy cheklanishlar bilan kechadi.

Avvalo, aqli zaif o'quvchilarda idrok jarayonining sustligi va differensiallashmaganligi ularning atrof-muhitni to'liq va aniq qabul qilishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa kundalik hayotiy vaziyatlarni to'g'ri tushunish va ularga adekvat javob berish imkoniyatini cheklaydi. Tafakkurning konkretligi, umumlashtirish va tahlil qilish qobiliyatining pastligi maishiy ko'nikmalarni ongli ravishda egallash jarayonini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, diqqatning beqarorligi va tez chalg'ishi o'quvchilarning faoliyatni yakuniga yetkazishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ko'pincha topshiriqning muhim qismlarini e'tibordan chetda qoldiradi yoki ketma-ketlikni buzadi. Xotira jarayonlarining sustligi esa o'zlashtirilgan ko'nikmalarning mustahkamlanishiga to'sqinlik qiladi.

Tadqiqotlar shuni ham ko'rsatadiki, aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishining cheklanganligi ularning ijtimoiy muloqotga kirishish imkoniyatlarini kamaytiradi. Nutqning passivligi, lug'at boyligining cheklanganligi va dialogik nutqning sust rivojlanganligi ijtimoiy-maishiy kompetensiyaning shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Bola o'z ehtiyojini ifodalashda qiynaladi va ko'pincha kattalarga to'liq bog'liq bo'lib qoladi.

Motivatsion sohadagi zaiflik ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Aqli zaif o'quvchilar faoliyatga ko'pincha tashqi rag'bat asosida kirishadi, ichki motivatsiya esa sust rivojlangan bo'ladi. Bu holat ularning mustaqil harakat qilish, tashabbus ko'rsatish va ijtimoiy vazifalarni bajarish darajasini pasaytiradi.

Bundan tashqari, irodaviy sohaning yetarli darajada shakllanmaganligi sababli bolalarda maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish qiyin kechadi. Ular tez charchaydi, barqarorlik yetishmaydi va faoliyatni oxirigacha yetkazishda yordamga muhtoj bo'ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ijobiy jihatlarni ham ko'rsatadi. Maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar, ayniqsa amaliy

faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar, takrorlash va vizual qo'llab-quvvatlash usullari orqali o'quvchilarda ijtimoiy-maishiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish mumkinligi aniqlangan. O'qituvchining aniq yo'riqnomalari, namuna ko'rsatishi va doimiy qo'llab-quvvatlashi bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, ijtimoiy-maishiy kompetensiyani rivojlantirishda oilaviy muhit va maktab hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Bola maktabda o'rgangan ko'nikmalarini uy sharoitida mustahkamlasa, ularning barqarorligi va mustaqilligi ortadi. Bu esa ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

Umuman olganda, aqli zaif o'quvchilarda ijtimoiy-maishiy kompetensiyani shakllantirish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u psixologik xususiyatlarni chuqur hisobga olishni talab etadi. Individual yondashuv, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim hamda tizimli korreksion ishlar bu jarayonning samaradorligini oshiradi va bolalarning jamiyatga moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarining ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni murakkab psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, u bolaning kognitiv, nutqiy, emotsional va irodaviy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu toifadagi o'quvchilarda idrok, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarining sust rivojlanishi ijtimoiy-maishiy ko'nikmalarni o'zlashtirishni sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik ta'lim jarayonida, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, takroriy o'rgatish, vizual qo'llab-quvvatlash va individual yondashuv orqali o'quvchilarda ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish mumkinligi aniqlandi. O'qituvchining yo'naltiruvchi roli va oilaviy muhit bilan hamkorlik bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini rivojlantirish ularning mustaqil hayotga moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon tizimli, izchil va individual yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga va hayotiy ko'nikmalarni egallashiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бгажнокова И.М. Путь к независимости: обучение детей с особенностями развития бытовым навыкам. — М.: Тервинф, 2000. — 320 с.
2. Выготский Л.С. Детская психология. — М.: Владос, 2013. — 435 с.
3. Ярошук Т.Г. Методические рекомендации: «Правила ухода и присмотра за детьми с тяжелыми множественными нарушениями развития. Организация развивающей среды». — Иркутск: ГАУ ЦППМиСП, 2020. — 47 с.
4. Филатова И.А., Каракулова Э.В. Технологии социально-коммуникативной реабилитации и абилитации детей с тяжелыми и множественными нарушениями развития: методическое пособие. — Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 2019. — 134 с.
5. Цикото Г.В. Проблемные дети: развитие и коррекция в предметно-практической деятельности: учебно-методическое пособие. — М.: Парадигма, 2013. — 193 с.
6. Шинкаренко В.А., Эскевич Д.Н. Организация трудового обучения учащихся второго отделения вспомогательной школы. — Минск, 2008. — 49 с.
7. Шипицына Л.М. «Необучаемые» дети в семье и обществе. Социализация детей с нарушением интеллекта. — 2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: Речь, 2005. — 477 с.
8. Электронный учебно-методический комплекс по разработке и реализации специальной индивидуальной программы развития

(СИПР). — Режим доступа: <http://умксипр.рф/> (дата обращения: 19.02.2023).

9. Абидаева А.Х. Перспективы развития информационных технологий в образовании: использование информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения // Материалы научно-практической конференции. — 2015. — С. 45–49.

10. Лубовский В.И. Специальная психология. — М.: Академия, 2010. — 464 с.

11. Певзнер М.С. Дети с нарушением интеллекта. Клиническая характеристика. — М.: Просвещение, 1989. — 256 с.

12. Рубинштейн С.Я. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2012. — 720 с.

13. Голованова Т.Н., Петрова В.Г. Психология и педагогика детей с интеллектуальными нарушениями. — М.: Владос, 2015. — 298 с.

14. Назарова Н.М. Специальная педагогика. — М.: Академия, 2013. — 400 с.

15. Дульнев Г.М. Основы обучения и воспитания умственно отсталых детей. — М.: Просвещение, 1981. — 312 с.

16. Соколова Е.В. Коррекционная педагогика: основы и технологии обучения детей с ОВЗ. — М.: Владос, 2016. — 352 с.

17. Морозова Н.Г. Формирование социальных навыков у детей с интеллектуальными нарушениями. — М.: Академия, 2014. — 240 с.

18. Кащенко В.П. Педагогическая коррекция детей с отклонениями в развитии. — М.: Просвещение, 1990. — 287 с